



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

TEODOR DRAYZER: NATURALIZMNING AMERIKA ADABIYOTIDAGI YORQIN NAMOYANDASI

Mardanova Mohira Davron qizi,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

mardanovamohira02@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15183524>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amerika adabiyotining yetuk vakillaridan biri Teodor Drayzer ijodining naturalistik yo'nalishdagi o'rni tahlil qilinadi. Naturalizmning asosiy tamoyillari – determinizm, obyektiv tasvirlash va ijtimoiy tabaqalanish kabi jihatlar Drayzer asarlari misolida yoritiladi. Ayniqsa, "Baxtiqaro Kerri" va "Sarmoyador" romanlari orqali kapitalistik jamiyatning inson taqdiriga ta'siri va qahramonlarning ichki dunyosini shakllantiruvchi omillar ko'rib chiqiladi. Drayzerning naturalistik yondashuvi orqali u jamiyatdagi axloqiy va iqtisodiy ziddiyatlarni ochib berishga muvaffaq bo'lgan.

Kalit so'zlar: Naturalizm, realizm, adabiyot, determinizm, obyektiv tasvir, ijtimoiy tabaqalanish, kapitalizm, Amerika adabiyoti.

Adabiyot inson hayotini, uning ma'naviy kechinmalarini, jamiyatdagi o'rnini aks ettiruvchi san'at turidir. 19-asr oxiri-20-asr boshlarida adabiyotda realizm va naturalizm yo'nalishlari yetakchi o'rinni egalladi. Xususan, naturalizm adabiyoti insonning atrof-muhit, ijtimoiy sharoit va moddiy ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lgan ichki ziddiyatlarini ochib berishga intildi.[2] Ushbu yo'nalish vakillaridan biri, amerikalik yozuvchi Teodor Drayzer naturalistik roman janrining yorqin namoyandalariidan biri hisoblanadi. Naturalizmning asosiy g'oyalari kelib chiqishini ko'rib o'tsak. Realizmning bir qismi sifatida naturalizm 1800-yillarning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi. Ushbu o'rinda Teodor Drayzerning asarlari naturalistik uslub namoyondalari sifatida eng yorqin ijodkor desak mubolag'a bo'lmaydi. Teodor Drayzer (1871-1945) o'z asarlarida, ayniqsa, Amerika madaniyatidagi ijtimoiy, ma'naviy va iqtisodiy keskin vaziyatlarni qamrab olishga e'tibor qaratadi. Drayzer o'z asarlarida inson xulq-atvorining biologik va psixologik asoslarini, tasodiflarning ta'sirini, ijtimoiy kuchlarning shaxs taqdiriga ta'sirini, inson hayoti tajribasini ko'rib chiqdi. Uning kitoblarida jamiyat tazyiqlari, moddiy talablar, tasodiflar inson taqdiriga ta'sir qilishini mohirona tasvirlab beradi. Naturalistik tamoyillarga amal qilgan holda, Drayzer personajlarning hayot yo'llarini ularning ijtimoiy konteksti, tug'ma xususiyatlari va tashqi ta'sirlari asosida shakllantiradi. Badiiy adabiyotda naturalistik falsafaning rivojlanishiga Teodor Drayzerning 1890-yillardan 1920-yillargacha bo'lgan faoliyati, xususan, uning jurnalist sifatidagi tajribasi va uning "Baxtiqaro Kerri" (1900), "Sarmoyador" (1912), "Titan" (1914) romanlari katta ta'sir



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

ko'rsatdi Drayzerning debyut romani Syuzan Lenzi (1900) axloq va voqelik o'rtasidagi uzilishga urg'u beriladi. Asar qahramoni hayot qiyinchiliklariga duch kelganda zaifligini namoyon qiladi va atrof-muhit ta'siridan axloqiy tamoyillarini yo'qotadi. Adibning "Sarmoyador" romani va undagi naturalistik tarkibiy qismlar ham alohida e'tiborga loyiq qilib yaratilgan. Ushbu yondashuv borliqni ilmiy asoslangan, ob'ektiv va materialistik tushunishni ta'minlashga qaratilgan bo'lib naturalistik asarlar quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Deterministik dunyoqarash: genlar, biologiya va ijtimoiy kontekst insonning xulq-atvoriga ta'sir qiladi.

Determinizmning falsafiy nazariyasi (lot. determino, ya'ni "aniqlayman" degan ma'noni anglatadi) hamma narsa bir-biri bilan sababiy bog'liq va ob'yektiv qonuniy ravishda o'zaro bog'langan. Bir hodisa (sabab) muayyan sharoitda zarurat tug'diradi, bu esa o'z navbatida boshqa hodisa (ta'sir)ga olib keladi, deb ta'kidlangan. Determinizm mazmunini inson aql-zakovati belgilovchi omilni o'zida mujassam etadi. Determinizmni Sharq faylasuflari Al-Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Ulug'bek va boshqalar, shuningdek, yunon faylasuflari Geraklit, Demokrit, Epikurlar ham tan olganlar. Determinizm psixologiyaning asosiy g'oyasi bo'lib, uning tamoyili ilmiy bilimlarning barcha sohalarida kompas va haqiqatni bilishning amaliy yo'li vazifasini bajaradi.[7]

2. Obyektiv tasvirlash: hech qanday badiiy bezaksiz, voqealar imkon qadar hayot haqiqatiga yaqinroq ko'rsatiladi.

Obyektiv tasvirlashda inson ongiga bog'liq bo'lmagan, undan tashqaridagi moddiy olam, borliqning moddiy shakli bo'lgan materiya o'zining barcha ko'rinishlari va xossalari bilan ob'ektiv borliqni tashkil etadi. Obyektiv borliqqa nafaqat tabiatdagi narsa, hodisa va jarayonlar, balki tabiat rivojining oliy mahsuli bo'lgan inson va jamiyat ham kiradi. Insonlar nazariy va amaliy faoliyati jarayonida moddiy va obyektivlashgan ma'naviy boyliklar yaratadi va o'zaro aloqada bo'ladi. Bularning barchasi ijtimoiylashgan obyektiv borliqning turli shakllari sifatida namoyon bo'ladi.

3. Ijtimoiy tabaqalanish: insonning moddiy ehtiyojlari, ma'naviy tanazzul, ichki ziddiyatlar kabi ijtimoiy-psixologik masalalar bo'yicha tadqiqotlarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy tabaqa deb tub maqsad-manfaatlari turlicha bo'lgan odamlar guruhlarining ijtimoiy sinf, tabaqa qatlamlarga bo'linib ketganligi u yoki bu jamiyat ijtimoiy tizimini keltirib chiqarishiga aytiladi. Ijtimoiy tabaqa ijtimoiy sinf tarkibida yoki o'zi mustaqil maqomga ega bo'lgan holda amal qiladigan ijtimoiy tizimidagi o'rni, maqomi, salmog'i bilan ijtimoiy nodirlikni tashkil etadi. Jamiyat moddiy va



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

ma'naviy boyliklarini yaratishga qo'shgan hissalarini, ular taqsimotidagi ulushlari mezon-o'lchovlariga ko'ra ijtimoiy tabaqa jamiyat tizimidagi o'z o'rniga va maqomiga ega bo'la oladi. Ijtimoiy tabaqalar qatorida ziyolilar, tadbirkorlar, siyosiy elita, xizmatchi xodimlar va shu kabi tabaqalarning har biri alohidalik nodirlik, o'ziga xos xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Drayzerning eng mashhur asarlaridan biri "Sarmoyador" romanidir. Ushbu romanda AQSh kapitalizm jamiyatining qadriyatlari va axloqiy tanazzuliga urg'u berilgan. Romanning bosh qahramoni Frenk Koupervud iqtidorli va tashabbuskor tadbirkor bo'lib, o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun axloqiy me'yorlarga bo'ysinmaydi. Ushbu romanda naturalistik adabiyotning quyidagi belgilari mavjud:

1. Deterministik taqdir - Frankning muvaffaqiyati va tanazzulini ijtimoiy sharoit va iqtisodiy munosabatlar belgilaydi.

2. Psixologik tahlil - qahramonning ichki dunyosi, qaror qabul qilish jarayoni chuqur yoritilgan..

Drayzerning birinchi muhim kitobi bo'lgan "Baxtiqaro Kerri" romani naturalistik yondashuvining yorqin namunasi, bunda qahramonlar hayotiga axloqiy emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar ta'sir qiladi. Kerrining hayotining turli bosqichlari orqali bu asar inson mavjudligining tartibsiz va oldindan belgilab qo'yilgan tabiatini tasvirlaydi.

Teodor Drayzerning asarlari Amerika naturalistik adabiyotining eng ajoyib namunalaridan biri bo'lib, ular kapitalistik jamiyat inson taqdirini qanday shakllantirishini chuqur tushunish imkonini beradi. Yozuvchi o'zining naturalistik yondashuvini qattiq tanqid qilinishiga qaramay, Drayzer o'zini naturalizm va realizmning yetakchi tarafdori sifatida ko'rsatishni davom ettirdi. Uning "Sarmoyador" va "Titan" kitoblarida kapitalizm jamiyatining asoslari va shaxsiy manfaatlar va kengroq ijtimoiy kontekst o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlik tasvirlangan.

XULOSA. Naturalizmning deterministik dunyoqarashi, jamiyat tanqidi, inson ongi tabiiy kuchlarga bog'liq, degan e'tiqodi bu asarlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Frenk Koupervud suratiga qaraganda, u an'anaviy realistlik qahramon ekanligi ayon bo'ladi. Uning maqsadlari pragmatizmga asoslangan va axloq bilan cheklanmagan bo'lsada, uning hayotdagi harakatlariga ijtimoiy sharoitlar va shaxsiy qobiliyatlar ta'sir qiladi. Korporativ sektordagi ma'naviy tanazzul, ijtimoiy bosim va shaxsiy manfaatlar o'rtasidagi ziddiyat "Sarmoyador" romanida Frenk Koupervud orqali tasvirlangan. Drayzer naturalistik yondashuvdan foydalanib, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni ochib berishga harakat qildi va ulardan biri sifatida tanildi



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Drayzer o'z davrining eng real mualliflaridan biri sifatida jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni fosh qilish uchun naturalistik usuldan foydalanishga harakat qilganva Amerika naturalizmiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan mualliflardan biri sifatida yorqin durdonalar qoldirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Drayzer, T. (1912). *The Financier*. Harper & Brothers.
2. Pizer, D. (1995). *The Cambridge Companion to American Realism and Naturalism*. Cambridge University Press.
3. Kazin, A. (1965). *On Native Grounds: An Interpretation of Modern American Prose Literature*. Harcourt, Brace & World.
4. Lotman, Y. M. (1994). *The Structure of the Artistic Text*. University of Michigan Press.
5. Mambetov, H. (2005). *Adabiyot nazariyasi*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
6. Karimov, U. (2019). *Realizm va naturalizm: Badiiy metod va yo'nalishlar*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Determinizm?veaction=edit§ion=1>